

“RO‘YXATGA OLINGAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy bankida

2023-yil 3 Oktabr da

17/2 - son bilan ro‘yxatga olingan

Markaziy bank
Raisining birinchi o‘rinbosari



N. Saydullayev

“TASDIQLANGAN”
“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
Aksiyadorlarining
2023-yil 29 avgustdagi navbatdan
tashqari umumiy yig‘ilishining

17/2 -sonli bayonnomasiga

2 -Ilova

Bank Kengashi Raisi



A. Voitov

O‘ZBEKISTON SANOAT - QURILISH BANKI”
AKSIYADORLIK TIJORAT BANKINING
USTAVIGA KIRITILAYOTGAN
O‘ZGARTIRISHLAR

Toshkent – 2023 yil

Aksiyadorlarning 2022-yil 24-iyundagi yillik umumiy yig'ilishining 01/2022-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston sanoat-qurilish banki" aksiyadorlik tijorat bankining ustaviga kiritilayotgan o'zgartirishlar

1. Ustavning 16.1-bandi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"16.1. Bankning ustav kapitali (joylashtirilgan aksiyalar soni) 4.628.941.927.804 (to'rt trillion olti yuz yigirma sakkiz milliard to'qqiz yuz qirq bir million to'qqiz yuz yigirma yetti ming sakkiz yuz to'rt) so'mni tashkil qiladi va u quyidagi aksiyalarga bo'lingan:

umumiy qiymati 4.621.911.927.804 (to'rt trillion olti yuz yigirma bir milliard to'qqiz yuz o'n bir million to'qqiz yuz yigirma yetti ming sakkiz yuz to'rt) so'm bo'lgan 243.258.522.516 (ikki yuz qirq uch milliard ikki yuz ellik sakkiz million besh yuz yigirma ikki ming besh yuz o'n olti) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar;

umumiy qiymati 7.030.000.000 (etti milliard o'ttiz million) so'm bo'lgan 370.000.000 (uch yuz yetmish million) dona egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiyalar."

2. Ustavning 47.2-bandi 1 va 2-xatboshilari quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"47.2. Bank Boshqaruvi Raisi va Boshqaruvning boshqa a'zolari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishilgan holda, Bank Kengashining qarori bilan tayinlanadi. Bank Boshqaruvi Raisini hamda uning o'rinbosarlarini tayinlash to'g'risidagi qaror, odatda, xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida qabul qilinadi.

Boshqaruv a'zoli, shuningdek Boshqaruvi Raisi va uning Boshqaruv a'zosi bo'lmagan o'rinbosarlarini tayinlash uchun har yili tanlovlar o'tkaziladi. Boshqaruv a'zoli, tanlovlar reglamenti Bank Kengashi tomonidan tasdiqlanib, unda tanlov e'lon qilish, tanlovning ob'ektiv mezonlari, ularning yakuni bo'yicha yangicha fikrlovchi, zamonaviy talablarga javob beruvchi yuqori malakaga ega bo'lgan, shuningdek xorijiy menejerlarni tanlab olish jarayonlari bayon etiladi."


Bank Boshqaruvi Raisi



S. Annaklichev

Yuridik departament direktori


B. Norxujayev

G'aznachilik departament direktori


D. Sadirov





AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHINING 02/2023 - sonli BAYONNOMASI

Манзили "Ўзсаноатқурилишбанк" АТБ биноси,
Тошкент ш., Шахрисабз кўчаси, 3

2023 йил 29 август
иш вақти 11.00-15.00

Банк Кенгашининг 2023 йил 4 августдаги 2023/22-сонли протокоliga асосан Акциядорларнинг навбатдан ташқари умумий йиғилишини масофадан туриб электрон овоз бериш хизмати <http://evote.uz/> орқали ўтказиш бўйича қарори қабул қилинган.

2023 йил 4 август ҳолатига шакллантирилган акциядорлар реестрига асосан банк акциядорларининг навбатдаги умумий йиғилиш ўтказиш учун мажлис ўтказиладиган жойи, куни, вақти ва кун тартиби тўғрисида хабар "Тошкент" РФБ, Корпоратив ахборот ягона портали, банкнинг расмий веб-сайтларига жойлаштирилган ҳамда акциядорларнинг электрон почта манзилига юборилган. Шу билан бирга мазкур хабар "Халқ сўзи" марказий рўзномасининг жорий йил 8 августдаги 161-сониди, "Народное слово" марказий рўзномасининг жорий йил 8 августдаги 160-сониди ҳамда "Биржа" иқтисодий газетасининг жорий йил 8 августдаги 59-сониди чоп этилган.

"Акциядорлик жамиятлари ва акциядорлар ҳуқуқини ҳимоя қилиш тўғрисида"ги Қонуннинг 61-моддасига ҳамда Банк Кенгашининг қарорига биноан, Акциядорларнинг навбатдан ташқари умумий йиғилишида иштирок этиш ҳуқуқига эга бўлган акциядорлар реестри тузиладиган сана- 2023 йил 23 август куни белгиланди. Мазкур санага шакллантирилган акциядорлар реестрида амалдаги қонунчиликка асосан фақат оддий акция эгалари йиғилишда овоз бериш ҳуқуқига эга.

2023 йил 23 август ҳолатига Банкнинг Устав капитали 4 634 513 904 398 (тўрт триллион олти юз ўттиз тўрт миллиард беш юз ўн уч миллион тўққиз юз тўрт минг уч юз тўқсон саккиз) сўмни ташкил қилади ва у қуйидаги акцияларга бўлинган:

- умумий қиймати 4 627 483 904 398 (тўрт триллион олти юз йигирма етти миллиард тўрт юз саксон уч миллион тўққиз юз тўрт минг уч юз тўқсон саккиз) сўм бўлган номинал қиймати 19 (ўн тўққиз) сўмлик 243 551 784 442 (икки юз қирқ уч миллиард беш юз эллик бир миллион етти юз саксон тўрт минг тўрт юз қирқ икки) дона эгасининг номи ёзилган оддий акциялар;

- умумий қиймати 7 030 000 000 (етти миллиард ўттиз миллион) сўм бўлган номинал қиймати 19 (ўн тўққиз) сўмлик 370 000 000 (уч юз етмиш миллион) дона эгасининг номи ёзилган имтиёзли акциялар.

Акциядорлар навбатдан ташқари умумий йиғилишининг ваколатли эканлиги (кворум мавжудлиги) бўйича <https://evote.uz> платформасидан маълумот олинди.

“Ўзсаноатқурилишбанк” АТБ акциядорларининг реестрига кўра, 2023 йил 23 август ҳолатига акциядорларнинг навбатдан ташқари умумий йиғилишида иштирок этиш ҳуқуқига эга бўлган акциядорлар рўйхатига жами 243 551 784 442 (икки юз қирқ уч миллиард беш юз эллик бир миллион етти юз саксон тўрт минг тўрт юз қирқ икки) дона оддий акциялар эгаси бўлган 7 224та (етти минг икки юз йигирма тўрт) акциядор киритилган.

Акциядорлар рўйхатининг тўғри расмийлаштирилганлиги ва акциядорлар номидан Акциядорларнинг навбатдан ташқари умумий йиғилишда иштирок этиш ҳуқуқига эга бўлган вакилларнинг ваколатлари тасдиқланди.

<https://evote.uz> платформасидан олинган маълумотга кўра, йиғилишда иштирок этиш учун умумий овоз берувчи акцияларнинг 233 363 170 721 (икки юз ўттиз уч миллиард уч юз олтиш уч миллион бир юз етмиш минг етти юз йигирма бир) дона ёки 95,81% фоизига эгаллик қилувчи 4 (тўрт) нафар акциядор ва акциядорларнинг вакиллари рўйхатдан ўтганлиги ва Акциядорларнинг навбатдан ташқари Умумий йиғилиш ваколатли эканлиги, маълум қилди. (Иқтисодиёт ва молия вазирлиги вакили банкга келган ҳолда, 3 нафар акциядор платформа орқали иштирок этди).

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 18 августдаги “Давлат иштирокидаги корхоналар ва Тижорат банкларини ислоҳ қилиш механизмини такомиллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-283-сонли Қарорига асосан Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси устав капиталидаги ўзига тегишли акция пакетлари бўйича акциядор ваколатларини амалга ошириш ва бошқариш функцияларини ишончнома асосида чекланмаган муддатга Иқтисодиёт ва молия вазирлигига берилиши белгиланган. (Тикланиш ва тараққиёт жамғармасининг Иқтисодиёт ва молия вазирлигига берилган ОЮ-07/08-737-сонли ишончнома).

<https://evote.uz> платформасидан олинган маълумотлар илова қилинади.

“Ўзсаноатқурилишбанк” АТБ акциядорларнинг навбатдан ташқари Умумий йиғилишини ўтказиш учун Банк Кенгаши Раиси – А. Воитов йиғилиш Раиси этиб сайланди.

Акциядорларнинг навбатдан ташқари Умумий йиғилишининг Ишчи органлари қуйидаги таркибда тузилди:

Йиғилиш ҳайъати: А. Воитов (йиғилишга Раислик қилувчи), А.Абдукадиров, А.Акбаржонов.

Санок комиссияси: Д.Абдукадиров, Х.Умаров, З.Баймурадова.

Йиғилиш котибияти: Х.Сатторов.

Акциядорлар навбатдан ташқари Умумий йиғилишининг кун тартибига куйидаги масалалар киритилган:

1. «Ўзсаноатқурилишбанк» АТБ Кенгашининг янги аъзоларини сайлаш ва айрим аъзоларининг ваколатларини муддатидан илгари тугатиш.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 18 мартдаги “Иқтисодиётда давлат иштирокини янада қисқартириш ва хусусийлаштиришни жадаллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 168-сонли қарорига мувофиқ “Ўзсаноатқурилишбанк” АТБ устав капиталини камайтириш тўғрисида”.

3. Илгари рўйхатдан ўтган қимматли қоғозларни чиқариш тўғрисидаги қарорга ўзгартиришларни киритиш ва қарорга киритилаётган ўзгартиришлар матнларини тасдиқлаш тўғрисида: 30.10.2018й. P0007-26, 25.12.2018й. P0007-27 ва 18.10.2019й. P0007-28

4. 2023 йил 27 июндаги Банк акциядорлари йиллик Умумий йиғилишининг 01/2023-сонли қарори билан тасдиқланган “Ўзсаноатқурилишбанк” АТБ уставига (янги тахрирда) киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчаларни тасдиқлаш.

5. 2023 йил 27 июндаги Банк акциядорлари йиллик Умумий йиғилишининг 01/2023-сонли қарори билан тасдиқланган “Ўзсаноатқурилишбанк” АТБ Бошқаруви тўғрисидаги Низомга киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчаларни тасдиқлаш.

Акциядорларнинг навбатдан ташқари Умумий йиғилишни иш тартиби куйидагича белгилаб олинди:

- Кун тартибидаги барча масалалар бўйича 5 ва 10 дақиқагача вақт бериш;
- Маърузалар бўйича муҳокамага - 10 дақиқагача;
- Кун тартибидаги масалаларни кўриб чиқишга – 10 дақиқагача;
- Кун тартибидаги масалалар бўйича овоз бериш учун - 5 дақиқагача.

Кун тартибига киритилган масалалар бўйича овоз бериш тартиби белгиланиб олинди.

Кун тартибидаги биринчи масала – Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 18 августдаги “Давлат иштирокидаги корхоналар ва Тижорат банкларини ислоҳ қилиш механизмини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-283-сонли Қарори эълон қилинди.

Унда, Давлат улушига эга тижорат банклари ва корхоналарни трансформация қилиш ва уларни хусусийлаштириш бўйича вазифаларни амалга ошириш, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 1 мартдаги «Давлат иштирокидаги корхоналарни ислоҳ қилиш жараёнларини жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-83-сон қарорининг иловасида кўрсатилган давлат иштирокидаги йирик корхоналар ва тижорат банклари, шунингдек «UzAssets» инвестиция компанияси устав капиталидаги давлат акция (улушлари) пакетлари Иқтисодиёт ва молия вазирлигига ўтказилиши белгиланди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 18 августдаги “Давлат иштирокидаги корхоналар ва Тижорат банкларини ислоҳ қилиш механизмининг такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-283-сонли Қарорига асосан Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси устав капиталидаги ўзига тегишли акция пакетлари бўйича акциядор ваколатларини амалга ошириш ва бошқариш функцияларини ишончнома асосида чекланмаган муддатга Иқтисодиёт ва молия вазирлигига берилиши белгиланган. *(Тикланиш ва тараққиёт жамғармасининг Иқтисодиёт ва молия вазирлигига берилган ОЮ-07/08-737-сонли ишончнома).*

Юқоридагиларни инобатга олиб, бугунги кунга Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги “Ўзсаноатқурилишбанк” АТБ нинг 95,66% акциядори сифатида Акциядорларнинг навбатдан ташқари умумий йигилишида иштирок этмоқда.

Бугунги кунда, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги банк акциядори функцияларни бажариб келаётганлигини инобатга олган ҳолда, шунингдек, Кузатув Кенгашига номзодлар АСР томонидан берилганлигини инобатга олган ҳолда, ушбу масалани кун тартибидан чиқариш таклифини берилди.

Кун тартибидаги иккинчи масала бўйича - Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 18-мартдаги “Иқтисодиётда давлат иштирокини янада қисқартириш ва хусусийлаштиришни жадаллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 168-сонли қарорида Банк тасарруфида бўлган “Ягона умумреспублика процессинг маркази” МЧЖнинг улуши ҳамда “Тошкент” РФБ АЖнинг акциялар пакетини Давлат активларини бошқариш агентлигига ўтказилиши белгиланган.

Шунингдек, қарорда Давлат иштирокидаги корхоналар устав капиталидаги давлат улуши улар томонидан Давлат активларини бошқариш агентлиги ва Молия вазирлигига топширилган активлар қолдиқ (баланс) қийматига камайтирилиши кўрсатилган.

Банк кузатув кенгашининг 2022 йил 13 апрелдаги 2022/05 сонли қарори билан “Тошкент” РФБ” АЖнинг 6,25 фоизлик (3 042 293 588,95 сўм) акция пакетлари ҳамда “Ягона умумреспублика процессинг маркази” МЧЖ устав фондидаги банкнинг 6,0 фоизлик (2 529 682 996,82 сўм) улуши Давлат

активларини бошқариш агентлигига ўтказилган ҳамда Банк балансининг 19997-сонли ҳисобрақамида 5 571 976 585,77 сўм қийматида юритилиб келинмоқда.

Юқоридагиларга асосан, Банк устав капиталидаги Давлат улушини Иқтисодиёт ва молия вазирлигига топширилган активлар суммасига, яъни акциялар бутун миқдори (дона/сўм)га яхлитланган қийматига 5 571 976 594,0 сўм ёки 293 261 926 дона (бир дона акция нархи 19 сўм) акцияга камайтириш ҳамда Банк уставига тегишли ўзгартиришлар киритиш масалалари Акциядорларнинг навбатдан ташқари умумий йиғилиши муҳокамасига киритилди.

Бунда, активлар баланс қиймати 5 571 976 585,77 сўм ва камайтириладиган акциялар қиймати 5 571 976 594 сўм ўртасидаги 8,23 сўм фарқ акциядорнинг тегишли ҳисобварағига ўтказилади.

Кун тартибидаги учинчи масала - Банк капиталидаги давлат улушини камайтирилиши - Банк кенгашининг 2018 йил 26 сентябрдаги 64/2018 сонли қарорига асосан 2018-йил 30-октябрда P0007-26-сон билан давлат рўйхатига олинган 27-чиқарилиш доирасидаги “Акциялар қўшимча чиқарилиши тўғрисида”ги қарорига ўзгартириш киритиш лозим. Ўз навбатида ушбу қарорга ўзгартириш киритилиши 2018-йил 25-декабрдаги P0007-27-сонли, 2019-йил 18-октябрдаги P0007-28-рақамли қўшимча оддий акциялар чиқариш тўғрисидаги қарорларига ҳам ўзгартириш киритишни тақозо қилади.

Кун тартибидаги тўртинчи ва бешинчи масалалар – Сўнгги йилларда давлат иштирокидаги корхоналар ва давлат улуши 50 фоиз ва ундан юқори бўлган тижорат банкларида корпоратив бошқарув тамойилларини жорий қилиш, уларнинг фаолияти ошқоралигини таъминлаш борасида амалдаги қонунчиликда бир қатор ўзгаришлар юз бермоқда.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 24 мартдаги “Давлат активларини бошқариш агентлиги фаолиятини самарали ташкил етиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-101-сонли Қарорида давлат иштирокидаги корхоналарда ижроия органи раҳбари ва унинг ўринбосарлари танлов асосида лавозимга тайинланиши, шунингдек қонун ҳужжатларига мувофиқ давлат мулкани бошқариш бўйича ваколатли давлат органига ахборотлар ва маълумотлар тақдим этилмаганда ёки ўз вақтида тақдим этилмаганда ижро органи раҳбарлари рағбатлантирилмаслиги билан боғлиқ ўзгаришлар киритилди.

Шунга асосан, Давлат активларини бошқариш агентлиги 2023 йил 1 майдаги 03/09-3-19/1665-сонли хат билан барча давлат иштирокидаги корхоналарга мурожаат қилиб, ушбу қонунчилик нормаларини ички ҳужжатларга киритилиши ва бу ҳақда ахборот берилишини сўраган.

Юқоридагиларни инобатга олиб, ҳамда қонунчиликда юз берган ўзгартиришларни ва янгиликларни Банк Уставида ва Банк бошқаруви тўғрисидаги Низомда акс эттириш, Ўзбекистон Республикаси Президенти ва

Ҳукуматининг қарорларини бажариш мақсадида, “Ўзсаноатқурилишбанк” АТБ акциядорларининг навбатдан ташқари Умумий йиғилиши кун тартибидаги масалаларни кўриб чиқиб, Банк Акциядорлари

ҚАРОР ҚИЛДИ:

1. Банк Кузатув Кенгашига сайлаш учун номзодларни тайинлаш масаласи кун тартибидан чиқарилсин.

Мазкур масала бўйича овоз бериш натижалари:

Овоз берилди: 233 363 157 376 овоз

“ёқлайман” – 233 363 157 376 овоз, “қаршиман” – йўқ, “бетарафман” – йўқ.

2. “Ўзсаноатқурилишбанк” АТБ устав капитали 5 571 976 594,0 сўм ёки 293 261 926 дона акцияга Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳисобидан камайтирилсин.

Мазкур масала бўйича овоз бериш натижалари:

Овоз берилди: 233 363 157 376 овоз

“ёқлайман” – 233 363 157 376 овоз, “қаршиман” – йўқ, “бетарафман” – йўқ.

3. Илгари рўйхатдан ўтган қимматли қоғозларни чиқариш тўғрисидаги қарорга ўзгартиришлар киритилсин ва қарорга киритилаётган ўзгартиришлар матни тасдиқлансин (1-Илова).

Мазкур масала бўйича овоз бериш натижалари:

Овоз берилди: 233 363 157 376 овоз

“ёқлайман” – 233 363 157 376 овоз, “қаршиман” – йўқ, “бетарафман” – йўқ.

4. 2023 йил 27 июндаги Банк акциядорлари йиллик Умумий йиғилишининг 01/2023-сонли қарори билан тасдиқланган “Ўзсаноатқурилишбанк” АТБ уставига (янги тахрирда) киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар тасдиқлансин (2-Илова).

Мазкур масала бўйича овоз бериш натижалари:

Овоз берилди: 233 363 157 376 овоз

“ёқлайман” – 233 363 157 376 овоз, “қаршиман” – йўқ, “бетарафман” – йўқ.

5. 2023 йил 27 июндаги Банк акциядорлари йиллик Умумий йиғилишининг 01/2023-сонли қарори билан тасдиқланган “Ўзсаноатқурилишбанк” АТБ Бошқаруви тўғрисидаги Низомга киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар тасдиқлансин (3-Илова).

Мазкур масала бўйича овоз бериш натижалари:

Овоз берилди: 233 363 157 376 овоз

“ёқлайман” – 233 363 157 376 овоз, “қаршиман” – йўқ, “бетарафман” – йўқ.

“Ўзсаноатқурилишбанк” АТБ
Акциядорларнинг навбатдан ташқари
умумий йиғилиши Раиси



А. Вонтов

Акциядорларнинг навбатдан ташқари
умумий йиғилиши котиби



Х. Саттаров

Корпоратив маслаҳатчи



К. Алимов

Санок комиссия



Д. Абдукадиров

Протокол расмийлаштирилган санаси “ 04” сентябрь 2023 йил.



"O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК "УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК"
"O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100000, Shahrizabz ko'chasi, 3-uy
Telefon: (871) 200-43-43, e-mail: info@uzpsb.uz, web-site: www.uzpsb.uz

В.ч. «29» сентебры
11-06/6872

Ўзбекистон Республикаси
Марказий банки

Банк томонидан ўз акцияларини сотиб олишга
дастлабки рухсатномани бериш тўғрисида
АРИЗА

"Ўзбекистон саноат-қурилиш банки" акциядорлик тижорат банки

Ўз акцияларини сотиб олиши учун дастлабки рухсатнома беришингизни
сўрайди.

Боғланиш учун масъул шахс:
Ф.И.Ш.: Садиров Дурбек Мейлижонович;
Лавозими: Ғазначилик департаменти директори;
Телефон: +998 78 120 45 00, ички: 1116;
Электрон почта манзили: dsadirov@sqb.uz.

Банк устав капиталини камайтириш ҳақидаги банк
умумий йиғилишининг қарори нусхаси _____ варақда илова қилинган.

" _____ " _____ й.

Банк кенгаши раиси

А.Вонтов



"O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI" AKSIYADORLIK TJORAT BANKI
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК "УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК"

"O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100000, Shahrizabz ko'chasi, 3-uy
Telefon: (871) 200-43-43, e-mail: info@uzpsb.uz, web-site: www.uzpsb.uz

23-y. «13» sentabr
№ 04-04/108

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki Raisining
birinchi o'rinbosari
N.N.Saydullayevga

Hurmatli Nodirbek Narzullayevich,

Bankning amaldagi ustavi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining 2022-yil 24-iyundagi 01/2022-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan bo'lib. Markaziy bankda 2022-yil 12-avgustda 17-sonli raqam bilan ro'yxatga olingan.

So'nggi yillarda davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan tijorat banklarida korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy qilish, ularning faoliyati oshkoraligini ta'minlash borasida amaldagi qonunchilikda bir qator o'zgarishlar yuz bermoqda.

Mazkur o'zgarishlarni Bank ustavida aks ettirish uchun ba'zi bandlarni o'zgartirish, ba'zilarini esa ustav matnidan chiqarib tashlash lozim bo'lmoqda.

Shunga ko'ra, amaldagi ustavga o'zgartirish va qo'shimchalar matni ishlab chiqilib, Bank aksiyadorlarining joriy yil 27-iyunda o'tkazilgan umumiy yig'ilishida tasdiqlandi.

"Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami: 3252, 2020-yil 30-iyun)ning 163-bandiga ko'ra, Bank ustaviga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar Markaziy bankda ro'yxatga olinishi lozim.

Nizomning 165-bandiga muvofiq, banklar ustaviga kiritiladigan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun qaror qabul qilingan kundan boshlab 30 kun mobaynida Markaziy bankka tegishli hujjatlarni uch nusxada ilova qilgan holda ariza taqdim etishi belgilangan.

Yuqoridagilarga ko'ra, Sizdan Bankning amaldagi ustaviga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni ro'yxatdan o'tkazishda amaliy yordam berishingizni so'raymiz.

Ilova: 27 varaqda.

Hurmat bilan,

Boshqaruv Raisi

Ibr. Sh. Bekmurzaev
Tel: (78) 120-45-11, ichki: 8650

S. Annaklichiev

22572
14 SEP 2023

Тикилган ва ракамланган


11 (11.08.2023)

вазиратин иборат

3 сентабр

2023 йил

Имзо



Республика Узбекистан, город Ташкент, Мирабадский район. Две тысячи двадцать третий год. Двадцать восьмое декабря
нотариус, Мирабадского района города Ташкента, занимающийся частной практикой - SATVALDIYEVA JAMILA BEKNAZAROVNA,
расположенный по адресу: город Ташкент, Мирабадский район, улица Сайхун дом 164.
Я, САТВАЛДИЕВА ЖАМИЛА БЕКНАЗАРОВНА, Нотариус, занимающаяся частной практикой Мирабадского района города Ташкента,
свидетельствую верность этой копии с подлинником документа, в последнем приписок, подчисток, зачеркнутых слов и иных, не
оговоренных исправлений или каких-либо особенностей не оказалось.

Зарегистрирована в реестре за №202302205007926.

Взыскано государственной пошлины: 81 600.00 (восемьдесят одна тысяча шестьсот сум ноль тийин) сум.

Нотариус

SATVALDIYEVA JAMILA BEKNAZAROVNA.



Вы можете проверить статус данного нотариального действия на электронном портале e-notarius.uz



И прошит, прошито
в 14 листах и скреплено
печатью
Нотариус: _____